

OILA VA MUHABBAT MEHRI. OTAJONIM, ONAJONIM UCHUN ATALGAN SHERLARIM

Ulmasov Muhridin Bobur o'g'li
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila a'zolariga bo'lgan mehr-muhabbat va sevgi mavzusidagi uchta original she'r — "Ona", "Ozoda" va "Ota" — badiiy-adabiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Har bir asarda qo'llanilgan obraz va metaforalar, mavzu-g'oya birligi hamda ularning umumbashariy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: ona mehri, ota mehnati, sevgi, oila, badiiy obraz, metafora, o'zbek she'riyati.

KIRISH

Inson hayotida eng aziz va muqaddas tuyg'ular — ota-onaga bo'lgan mehr-muhabbat va sof sevgidir. Quyida ushbu tuyg'ularni ifoda etuvchi uchta she'r keltirilgan bo'lib, ular ona mehri, ota mehnati va sevgi mavzularini yoritadi.

OTA

Ota — xonadonning baland chinori,
Mehring yuragimning so'nmas bahori.
Mashaqqat yo'lida tolga bo'lsang ham,
Kulgingdan taralar baxtning ziyosi.
Tong bilan uyg'onib mehnat qilasiz,
Biz uchun umringiz fido qilasiz.
Bir burda non topib halol yo'llarda,
Farzand kamolin deb yashab kelasiz.
Har so'zingiz yurakka bitilgan hikmat,
Har qadamingiz bizga saboq va ibrat.
Dunyoda eng buyuk boyligim sizsiz,
Borligingiz o'zingiz cheksiz ne'mat.

Ushbu she'rda ota obrazi "xonadonning baland chinori" sifatida berilgan — bu metafora ota oilaning tayanchi, himoyachisi va mustahkam ustuni ekanligini yorqin ifodalaydi. Muallif otaning mashaqqatli mehnati, tinimsiz g'amxo'rliqi va farzandi kamoloti yo'lida qilgan fidoyiligini ta'kidlaydi. She'rda ayniqsa "har so'zi hikmat, har qadami ibrat" degan satrlar orqali ota nasihatlarining tarbiyaviy ahamiyati alohida urg'u berilgan. Umuman, bu asar ota mehnatining ko'zga tashlanmasa-da, oila farovonligining asosi ekanligini ta'sirli tasvirlaydi.

ONA

*Ona — qalbimdagi so'nmas bir chiroq,
Mehring ila bo'ldi hayotim porloq.
Har bir oq sochingda ming armon yashar,
Har bir duoyingda bir olam charog'.
Beshigim tebratib bedor o'tgan tun,
Baxtim deb yelkalab ko'tardingi yukim.
Bir lahza o'zingni o'ylamading hech,
Menga baxsh etildi butun bor kuching.
Yiqilsam, qo'lingdan madad topaman,
Charchasam, so'zingdan quvvat olaman.
Dunyoning eng ulug' unvoni bitta —
Uni faxr bilan "Onam" deya atayman.
Na oltin, na gavhar, na yuksak saroy,
Onamning mehriga bo'lolmas teng boy.
Jannat ham onaning oyog'i osti,
Shu haqiqat bilan bezanar bu joy.
Ey, ona, umringiz bo'lsin ziyoda,
Kulgingiz yangrasin doim dunyoda.
Bor ekan duoying, qo'rqmayman aslo,
Siz mening baxtimsiz ikki jahonda.*

Ushbu she'rda ona timsoli "so'nmas chiroq" va "charog'" metaforalari orqali berilgan, bu esa onaning farzand hayotidagi yo'l ko'rsatuvchi, doimiy yoritib turuvchi kuch ekanligini ta'kidlaydi. Muallif onaning tunlar osha bedor o'tgan lahzalarini, farzandi uchun o'z shaxsiy manfaatlaridan voz kechishini samimiy tasvirlaydi. Xususan, "jannat onaning oyog'i ostida" degan xalq hikmatiga ishora she'rga diniy-axloqiy chuqurlik baxsh etgan. Umuman olganda, bu asar ona mehrining hech qanday moddiy boylik bilan tenglashtirib bo'lmasligi haqidagi umumbashariy g'oyani badiiy yuksak darajada ifodalaydi.

XULOSA

Ushbu to'plamga kiritilgan uchta she'r — "Ona", "Ozoda" va "Ota" — insonning eng yaqin va aziz kishilariga bo'lgan mehr-muhabbatini turli qirralardan yoritadi. Ona va ota haqidagi she'rlar oilaviy burch, minnatdorchilik va farzandlik hurmatini kuylasa, "Ozoda" she'ri esa yosh yurakdagi sof sevgi tuyg'usini ifoda etadi. Uchala asarni birlashtirib turgan asosiy g'oya — insonni hayotga bog'lab turuvchi mehr-muhabbat tuyg'usining qadrini anglash va uni e'zozlashdir. Bunday she'rlar nafaqat badiiy zavq bag'ishlaydi, balki o'quvchida oila va yaqinlariga nisbatan mehr-oqibat tuyg'usini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. — Toshkent, 1926.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi: O'quv qo'llanma. — Buxoro.
3. Ko'chimov M. va boshq. Adabiyotshunoslik: Darslik. — Toshkent, 2022.
4. O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari: Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2024.
5. Baqoyeva M. She'riy asarlarda poetik sintaksis masalalari // Adabiyot nazariyasi masalalariga bag'ishlangan xalqaro konferensiya materiallari.

